

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aniq va tabiiy fanlar

FIZIKA– TEXNIKA

O‘.B.O‘ljayev, K. Mehmonov, I.D.Yadgarov, U.B.Xalilov Vodorod adsorbsiyasida grafendagi nuqsonlarning roli	6
A.Sh.Raximov Avtomobil dvigatellarining asosiy turlari va ish sikli.....	13
Sh.A.Muminova, I.D. Yadgarov, O‘.B. O‘ljayev Azot atomlarining turli xil haroratdagi uglerodli nanotrubkalarga ta'siri	22

KIMYO

I.R.Asqarov, M.A.Axmadaliev, N.M.Yakubova Furfuralning xalq iqtisodiyotidagi ahamiyati	28
S.A.Mamatqulova, I.R.Asqarov Oddiy arpabodiyon (<i>Pimpinella anisum L.</i>) tarkibidagi biologik faol moddalarning antioksidantlik faolligini aniqlash.....	33
X.V.Qoraboyev, N.Sh.Azimov <i>Indigofera tinctoria Linn</i> o‘simligi tarkibidagi umumiy oqsil miqdorini o‘rganish	39
J.B.Mavlonov, Sh.N.Turemuratov, B.Ch.Nurimbetov, E.A.Eseyova Jamansay koni dolomitini o‘rganish.....	45
A.A.Xamzaxo‘jayev, M.I.Payg‘amova, G‘.M.Ochilov, R.A.Payg‘amov Ikkilamchi xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari o‘rganish	50
X.V.Isroilova, B.Y.Abdug‘aniyev, A.B.Perdebayev Tashqi iqtisodiy faoliyatda polimerlarning nazariy va huquqiy jihatlarini	54

BIOLOGIYA

I.I.Zokirov Sabzavot–poliz agrobiotsenozlarida tasodifiy uchrovchi adventivlar (Markaziy Farg‘ona hududi misolida)	60
M.R.Shermatov <i>Mythimna unipuncta</i> ning rivojlanishi hamda morfologik xususiyatlariga ozuqa o‘simligining ta'siri	64
V.Maxmudov, J.O.Mamarasulov Farg‘ona vodiysi florasida burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub endem turlarni muhofazasi	74
G.M.Zokirova Farg‘ona vodiysida ilk marta qayd etilgan <i>Pineus strobi</i> hartig, 1839 (Hemiptera, Adelgidae) turining bioekologiyasi	77
A.E.To‘lqinov Plankton organizmlarga xos xususiyatlar tahlili	80
Y.Qayumova, Ch.Abdug‘axhorova Iskandariya (<i>iskandaria prokofiev</i> , 2009) urug‘i turlarining Farg‘ona vodiysi chuchuk suv havzalari bo‘ylab tarqalishi	83

GEOGRAFIYA

T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, E.D.Hamdami O‘zbekiston tog‘li hududlarida rekreatsiyani rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	87
O.I.Abdug‘aniyev, E.G‘.Mahkamov, H.R.Abdullayeva Turistik-rekreatsiya tizimlarini shakllantirishda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini baholash	94

TURISTIK-REKREATSION TIZIMLARNI SHAKLANTIRISHDA MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY IMKONIYATLARINI BAHOLASH**ОЦЕНКА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА В ФОРМИРОВАНИИ ТУРИСТО-РЕКРЕАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ****ASSESSMENT OF THE SOCIO-ECONOMIC POTENTIAL OF THE REGIONS IN THE FORMATION OF A TOURIST AND RECREATIONAL SYSTEM****¹Abdugʻaniev Olimjon Isomiddinovich**¹Fargʻona davlat universiteti geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.f.d.**²Mahkamov Elyorbek Gʻayratovich**²Fargʻona davlat universiteti geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.f.d. (PhD)**³Abdullayeva Hamidaxon Rustamjon qizi**³Fargʻona davlat universiteti geografiya kafedrasida tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Fargʻona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash asosida turistik-rekreatsioon tizimlarni takomillashtirish imkoniyatlari tumanlar darajasida koʻrib chiqilgan. Shuningdek, Fargʻona viloyatining maʼmuriy tumanlari boʻyicha turistik-rekreatsioon salohiyati boʻyicha guruhlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Аннотация

В данной статье на основе оценки социально-экономического потенциала Ферганской области рассматриваются возможности совершенствования туристско-рекреационной системы на районном уровне. Также проведена группировка административных районов Ферганской области по туристско-рекреационному потенциалу.

Abstract

This article, based on an assessment of the socio-economic potential of the Fergana region, examines the possibilities of improving the tourism and recreational system at the district level. A grouping of administrative districts of the Fergana region according to tourism and recreational potential was also carried out.

Kalit soʻzlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiy faoliyat, chakana soʻd, tabiiy sharoit, rekreatsioon va turistik salohiyat, baholash, agroturizm.

Ключевые слова: устойчивое развитие, экономическая деятельность, розничная торговля, природные условия, рекреационно-туристский потенциал, оценка, агротуризм.

Key words: sustainable development, economic activity, retail trade, natural conditions, recreational and tourist potential, assessment, agritourism.

KIRISH

Bugungi kunda turizmga insonlarning ehtiyojlarini qondirish va ularning yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiyotning eng muhim sohalaridan biri sifatida baho berilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish uchun ulkan tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatga ega mamlakatlardan biri sifatida xalqaro ekspertlar tomonidan eʼtirof etilmoqda. Mamlakatimizning tabiiy, madaniy va tarixiy resurslari va yodgorliklari turizmning deyarli barcha turlarini, shu jumladan isteʼmolchilarning xohishiga koʻra rekreatsioon, madaniy-maʼrifiy, ziyorat, biznes, gastronomik, sport, ekstremal, tibbiy va rekreatsioon, ekologik, qishloq kabi boshqa turlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Turizmni barqaror rivojlanishi mintaqalarning turistik va rekreatsioon resurslar bilan taʼminlanganligi va ularni jozibadorligiga bogʻliqdir. Yaʼni, turistik-rekreatsioon tizimlarni shakllantirilganligiga bogʻliqdir. Biroq, mamlakatimizning ayniqsa, viloyatlarning turistik va rekreatsioon salohiyatidan toʻliq foydalanish yoʻlga qoʻyilmagan. Viloyatlarda turistik markazlarning shakllantirish uchun ularning turistik-rekreatsioon imkoniyatlarini kompleks baholash talab etiladi.

Turizm sohasiga oid ilmiy adabiyotlarda "turistik-rekreatsioon tizimlar (TRT) bu – aholi tomonidan turistik mahsulotlar va rekreatsiya xizmatlarini ishlab chiqarish, sotish va isteʼmol qilish jarayonini toʻliq aks ettiruvchi oʻzaro bogʻliq boʻlgan bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topgan

GEOGRAFIYA

ijtimoiy-iqtisodiy geotizim” [15] sifatida baholangan. TRTning asosi tabiiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning hududiy birikmalaridan tashkil topadi. Shu bois, tadqiqot ishida dastlab Farg’ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini turistik-rekreationsion jihatdan baholashga e’tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Rekreatsiya va turizmni geografik jihatdan o’rganish va rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslari, baholash mezonlari horijlik va MDH olimlaridan Charles R.Goeldner, J.R.Brent, R.W.Butler, V.S.Preobrajenskiy, N.S.Mironenko, K.Jumashev, A.G.Nizamiyev, S.R.Yerdavletov, L.Yu.Majar, N.V.Shabalina va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizmning ayrim muammolari bo’yicha A.S.Soliyev, H.Vahobov, A.N.Nigmatov, N.To’xliyev, A.Nopchayev, Yu.I.Ahmadaliyev, M.R.Usmonov kabi tadqiqotchilar shug’ullanishgan.

Bundan tashkari, N.Shamuratova, B.H.Kamolov, Sh.T.Yakubzhonova, M.M.Makhmudov, O.B.Badalov, E.Makhkamov kabi tadqiqotchilar tomonidan recreation va tourism masalalari bo’yicha hududlarni tadqiq etish, etc. lishlarini yanada rivojlantirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabi masalalari keng ko’lamda va chuqur tahlil etilgan. Lekin TRTlarni shakllantirish nuqtai nazaridan mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini complex baholash, mintaqadagi ma’muriy-hududiy birliklarning umumiy salohiyatdagi ulushini tahlil qilish, har bir hudud xususiyatidan kelib chiqib tavsiyalar ishlab chiqish kabi masalalarga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg’ona viloyatining maydoni 6,759 ming km², chegara uzunligi qo’shni davlatlar (Tojikiston va Qirg’iziston Respublikalari) bilan 562,6 km, Respublika viloyatlari (Namangan va Andijon viloyati) bilan 176 km bo’lib, umumiy 738,6 km ga teng. So’x tumani, Farg’ona va Rishton tumanlarining ayrim hududlari anklav hisoblanadi. Ma’muriy-hududiy jihatdan 4 ta shahar va 15 ta tumanga ajratilgan. Doimiy aholi soni 3896,4 ming kishi (yillik o’sish 2,0 % ga teng) bo’lib, aholi zichligi 1 km² - maydonga 576,5 kishi to’g’ri keladi. Urbanizatsiya darajasi 56,2 % ga teng.

Viloyat YAHM (yalpi hududiy mahsulot) tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar 7,9 % ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa 6,2 % ni, xizmat ko’rsatuvchi boshqa xizmatlar 22,7 % ni tashkil etadi. Farg’ona viloyati bo’yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha bozor xizmatlari ko’rsatkichi 2021-yilda 17810,1 mlrd. so’mni tashkil qilib, o’sish sur’ati 120 % ga to’g’ri kelgan. Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (31,7 %), transport (20,6 %) xizmatlariga to’g’ri kelgan. Hududlar kesimida esa eng katta ulush Farg’ona shahri (6979,5 mlrd. so’m), Qo’qon shahri (2376,4 mlrd. so’m), Marg’ilon shahri (1742,1 mlrd. so’m), Uchko’prik tumani (663,5 mlrd. so’m), Buvayda tumani (578,3 mlrd. so’m), aholi jon boshiga hisoblaganda esa Farg’ona shahri (23555,6 ming so’m), Qo’qon shahri (9207 ming so’m), Marg’ilon shahri (7237,6 ming so’m), Quvasoy shahri (4325,8 ming so’m), Yozyavon tumani (3362,5 ming so’m) ga to’g’ri kelgan. Farg’ona viloyati bo’yicha yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar xajmi 440,1 mlrd. so’mni, transport xizmatlar hajmi 3666,3 mlrd. so’mni tashkil qilgan.

Bundan tashqari, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohasidagi mahsulot va xizmatlar 27635,7 mlrd. so’mni, o’rmon xo’jaligi sohasidagi mahsulot va xizmatlar 296,2 mlrd. so’mni, baliqchilik xo’jaligi sohasidagi mahsulot va xizmatlar 163,3 mlrd. so’mni tashkil etdi. Hududiy tahlil qilinganda qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi mahsulotlari va xizmatlarida Oltiariq tumani (2396,8 mlrd. so’m), Qo’shtepa tumani (2348,8 mlrd. so’m), Farg’ona tumani (2105,2 mlrd. so’m), Rishton tumani (2093,8 mlrd. so’m) yetakchi bo’ldi. Lekin, o’sish sur’atlariga ko’ra, Rishton tumani (107,5 %), Beshariq tumani (104,9 %), Qo’shtepa tumani (104,9 %) da kuzatilgan.

Farg’ona viloyatida transportning avtomobil, temir yo’l, havo transporti turlari mavjud. 2021-yil holatiga yuk tashish bo’yicha avtomobil, yuk aylanmasi bo’yicha temir yo’l, yo’lovchi tashish va yo’lovchi aylanmasi bo’yicha avtomobil transporti yetakchilik qiladi. Avtomobil transportida yo’lovchi aylanmasining 87,9 % i yakka tartibdagi yo’lovchi tashuvchilardir. Yo’lovchi tashishda eng katta o’sish sur’ati esa havo transportiga to’g’ri kelib, 602 % ni tashkil etgan. Shuningdek, So’x tumaniga 2021-yildan muntazam ravishda Farg’ona–So’x yo’nalishida An-2 yo’lovchi tashish samolyoti bilan aviaqatnov yo’lga qo’yildi. Bu nafaqat mahalliy aholi uchun, balki turistlar uchun ham qulaylik yaratadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kiritilgan investitsiyaning umumiy hajmi 12920,6 mlrd. so'm bo'lib, shundan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga 8,1 % i (1050,7 mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga 2,6 % i (333,4 mlrd. so'm), axborot va aloqaga 0,9 % i (113,7 mlrd. so'm), san'at, ko'ngil ochish va dam olish uchun 0,5 % i (67,8 mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga 0,4 % i (50,7 mlrd. so'm) yo'naltirilgan. Hududlar kesimida eng ko'p investitsiyalar Farg'ona shahri, O'zbekiston tumani, Qo'qon shahri, Beshariq tumaniga kiritilgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha 2021-yilda tashqi savdo aylanmasi 1835 mln. AQSH dollarini, eksport 800,7 mln. AQSH dollarini, import 1034,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Eksport tarkibida sanoat tovarlari (51,2 %), oziq-ovqatlar va tirik hayvonlar (31,3 %) yetakchi hisoblansa, xizmatlar ulushi 2.3 % ni tashkil etgan. Farg'ona viloyatining transport, aholi va mehnat resurslari, moddiy texnik-baza kabi iqtisodiy-ijtimoiy omillari tahlil qilinganda, Farg'ona shahri, Qo'qon shahri, Marg'ilon shahri, Farg'ona tumani yuqori, Yozyavon tumani, Furqat tumani, So'x tumani past salohiyatga ega ekinligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona viloyati turistik-rekreatsion salohiyatining iqtisodiy-ijtimoiy omillar blokini baholash natijasi (2021 y)

№	Tuman va shahar	Transport		Aholi va mehnat resurslari		Moddiy-texnik baza		Umumiy	
		Jami ball	Ulush (%)	Jami ball	Ulush (%)	Jami ball	Ulush (%)	Umumiy ball	Ulush (%)
1	Farg'ona sh.	20	6,39	25	8,22	43	8,15	88	7,69
		28,09 %		36,11 %		35,80 %		100 %	
2	Qo'qon sh.	18	5,76	24	7,90	42	7,95	84	7,34
		26,65 %		36,56 %		36,79 %		100 %	
3	Marg'ilon sh.	20	6,39	21	6,92	36	6,82	77	6,72
		31,74 %		34,38 %		33,88 %		100 %	
4	Farg'ona t.	17	5,44	17	5,60	29	5,50	63	5,48
		32,89 %		33,86 %		33,25 %		100 %	
5	Toshloq t.	17	5,44	14	4,60	30	5,68	61	5,33
		34,61 %		29,26 %		36,13 %		100 %	
6	Quva t.	17	5,44	14	4,60	30	5,68	61	5,33
		34,61 %		29,26 %		36,13 %		100 %	
7	Oltiariq t.	16	5,12	14	4,60	30	5,68	60	5,24
		33,25 %		29,87 %		36,88 %		100 %	
8	Quvasoy sh.	18	5,76	18	5,91	24	4,54	60	5,24
		35,53 %		36,46 %		28,01 %		100 %	
9	Rishton t.	16	5,12	15	4,93	27	5,11	58	5,10
		33,77 %		32,52 %		33,71 %		100 %	
10	O'zbekiston t.	15	4,78	16	5,30	27	5,11	58	5,10
		31,47 %		34,89 %		33,64 %		100 %	
11	Qo'shtepa t.	17	5,44	15	4,93	26	4,92	58	5,10
		35,58 %		32,24 %		32,18 %		100 %	
12	Buvayda t.	15	4,78	14	4,60	28	5,30	57	4,97
		32,56 %		31,33 %		36,11 %		100 %	
13	Uchko'prik t.	15	4,78	15	4,93	27	5,11	57	4,97
		32,25 %		33,27 %		34,48 %		100 %	
14	Dang'ara t.	15	4,78	14	4,60	26	4,92	55	4,78
		33,43 %		32,17 %		34,40 %		100 %	
15	Beshariq t.	15	4,78	14	4,60	23	4,36	52	4,53
		34,79 %		33,48 %		31,73 %		100 %	
16	Bag'dod t.	15	4,78	14	4,60	23	4,36	52	4,53

GEOGRAFIYA

		34,79 %		33,48 %		31,73 %		100 %	
17	YOzyovon t.	16	5,12	13	4,28	20	3,80	49	4,27
		38,79 %		32,42 %		28,79 %		100 %	
18	Furqat t.	15	4,78	14	4,60	19	3,60	48	4,19
		36,83 %		35,44 %		27,73 %		100 %	
19	So'x t.	16	5,12	13	4,28	18	3,41	47	4,09
		39,97 %		33,41 %		26,62 %		100 %	
	Jami	313	100	304	100	528	100	1145	100

Tupictik agentliklap, tupopepatoplarning xizmatlari, bron qilish va u bilan bog'liq boshqa xizmatlar bo'yicha Farg'ona viloyatining Respublikadagi ulushi 10,2 % ni, Farg'ona vodiysi viloyatlari orasida 92,7 % ni tashkil etadi. Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning asosiy qismi Farg'ona va Qo'qon shaharlarida joylashgan. Turistlarni turar joy bilan ta'minlash darajasi tahlil qilinganda, Farg'ona viloyatining Respublikadagi ulushi 4,3 % ni, Farg'ona vodiysi viloyatlari orasida 45,7 % ni tashkil etadi. Viloyat bo'yicha esa Farg'ona shahri, Qo'qon shahri, Marg'ilon shahrida bu ko'rsatkich boshqa ma'muriy-hududiy birliklardan keskin yuqoriligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha tashkil etilgan 149 ta turistik marshrutlarning 28,2 % i (42 ta) Farg'ona vodiysi bo'ylab tashkil etilgan. Bu turistik marshrutlarning asosiy qismi Farg'ona shahri (39 ta), Qo'qon shahri (18 ta), Marg'ilon shahri (13 ta), Namangan shahri (7 ta), Andijon shahri (7 ta), Quva shahri (4 ta), Rishton shahri (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysiga kelayotgan sayyohlarning birinchi yoki doimiy qo'nalg'asi Farg'ona va Qo'qon shaharlari hisoblanadi. Marshrut dasturiga kiritilgan boshqa shaharlarga rayohat bu shaharlardan ekskursiya ko'rinishida amalga oshiriladi. Bugungi kunda Farg'ona viloyatida asosan quyidagi turistik yo'nalishlar mavjud: rekreatsion turizm (Farg'ona tumani, Oltiariq tumani, Beshariq tumani); tarixiy-madaniy tanishtiruv turizm (Qo'qon shahri, Marg'ilon shahri, Farg'ona shahri); ziyorat turizmi (Marg'ilon shahri, Farg'ona tumani, Rishton tumani, Toshloq tumani); tabiiy-tanishtiruv turizmi (Farg'ona tumani, Yozyavon tumani, Quva tumani); agroturizm (Farg'ona tumani, Quva tumani, Oltiariq tumani); hunarmandchilik va shop turizm (Marg'ilon shahri, Qo'qon shahri, Rishton tumani); sport turizmi (Farg'ona shahri, Qo'qon shahri, Farg'ona tumani, O'zbekiston tumani).

Lekin bu yo'nalishlar viloyat turistik-rekreatsion salohiyatini to'liq namoyish etmaydi. Farg'ona viloyatida turistik infratuzilmasining rivojlanganligi ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha katta tafovut bilan taqsimlanganligini ko'rishimiz mumkin. Farg'ona viloyatining turistik turar joylar, turizm sanoati subyektlari, mavjud turistik-rekreatsion yo'nalishlar tahlil qilinganda, Farg'ona tumani, Quva tumani, Quvasoy shahri, Farg'ona shahri, Qo'qon shahri yuqori, Toshloq tumani, O'zbekiston tumani, Bag'dod tumani, Furqat tumani past salohiyatga ega ekinligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval**Farg'ona viloyati turistik-rekreatsion salohiyatining turistik omillar blokini baholash natijasi**

№	Tuman va shahar	Turistik turar joylar		Turizm sanoati sub'ektlari		Turistik-rekreatsion yo'nalishlar		Umumiy	
		Jami ball	Ulush (%)	Jami ball	Ulush (%)	Jami ball	Ulush (%)	Umumiy ball	Ulush (%)
1	Farg'ona t.	19	7,39	13	6,16	35	9,00	67	7,82
		32,77 %		27,32 %		39,91 %		100 %	
2	Quva t.	16	6,23	15	7,11	29	7,45	60	7,00
		29,97 %		34,20 %		35,83 %		100 %	
3	Quvasoy sh.	18	7,00	11	5,21	26	6,68	55	6,42
		37,06 %		27,58 %		35,36 %		100 %	
4	Farg'ona sh.	17	6,61	15	7,11	18	4,63	50	5,83
		36,02 %		38,75 %		25,23 %		100 %	
5	Qo'qon sh.	17	6,61	13	6,16	19	4,88	49	5,72

		37,45 %		34,90 %		27,65 %		100 %	
6	Rishton t.	13	5,06	10	4,74	25	6,43	48	5,60
		31,18 %		29,20 %		39,62 %		100 %	
7	Beshariq t.	14	5,45	10	4,74	23	5,91	47	5,48
		33,85 %		29,44 %		36,71 %		100 %	
8	Buvayda t.	13	5,06	11	5,21	21	5,40	45	5,25
		32,29 %		33,25 %		34,46 %		100 %	
9	Marg'ilon sh.	17	6,61	10	4,74	18	4,63	45	5,25
		41,36 %		29,67 %		28,97 %		100 %	
10	YOzyovon t.	10	3,89	12	5,70	22	5,65	44	5,13
		25,52 %		37,40 %		37,08 %		100 %	
11	Oltiariq t.	14	5,45	7	3,32	23	5,91	44	5,13
		37,12 %		22,62 %		40,26 %		100 %	
12	Dang'ara t.	13	5,06	11	5,21	18	4,63	42	4,90
		33,96 %		34,97 %		31,07 %		100 %	
13	Uchko'prik t.	13	5,06	12	5,70	17	4,37	42	4,90
		33,44 %		37,67 %		28,89 %		100 %	
14	Qo'shtepa t.	10	3,89	15	7,11	15	3,86	40	4,67
		26,18 %		47,85 %		25,97 %		100 %	
15	So'x t.	11	4,29	9	4,26	19	4,88	39	4,55
		31,94 %		31,72 %		36,34 %		100 %	
16	Toshloq t.	10	3,89	9	4,26	19	4,88	38	4,43
		29,85 %		32,69 %		37,46 %		100 %	
17	O'zbekiston t.	12	4,67	9	4,26	16	4,11	37	4,32
		35,81 %		32,67 %		31,52 %		100 %	
18	Bag'dod t.	10	3,89	11	5,21	14	3,60	35	4,10
		30,63 %		41,02 %		28,35 %		100 %	
19	Furqat t.	10	3,89	8	3,79	12	3,10	30	3,50
		36,08 %		35,16 %		28,76 %		100 %	
	Jami	257	100	211	100	389	100	857	100

O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi taraqqiyot Strategiyasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Jumladan, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirish va 520 ming nafarga yetkazish, turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish va boshq.. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqib har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy hamda turistik infratuzilmasini tahlil qilish, salbiy jihatlarini bartaraf etish va ijobiy jihatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

3-jadval

Farg'ona viloyati iqtisodiy turistik-rekreatsion salohiyati (% hisobida)

No	Tuman	Iqtisodiy-ijtimoiy omillar	Turistik omillar	Jami	Ulushi
1	Farg'ona sh.	7,69	5,83	13,52	6,76
2	Farg'ona t.	5,48	7,82	13,3	6,65
3	Qo'qon sh.	7,34	5,72	13,06	6,53
4	Quva t.	5,33	7,00	12,33	6,17
5	Marg'ilon sh.	6,72	5,25	11,97	5,99
6	Quvasoy sh.	5,24	6,42	11,66	5,83
7	Rishton t.	5,10	5,60	10,7	5,35

GEOGRAFIYA

8	Oltiariq t.	5,24	5,13	10,37	5,19
9	Buvayda t.	4,97	5,25	10,22	5,11
10	Beshariq t.	4,53	5,48	10,01	5,01
11	Uchko'prik t.	4,97	4,90	9,87	4,94
12	Qo'shtepa t.	5,10	4,67	9,77	4,89
13	Toshloq t.	5,33	4,43	9,76	4,88
14	Dang'ara t.	4,78	4,90	9,68	4,84
15	O'zbekiston t.	5,10	4,32	9,42	4,71
16	YOzyovon t.	4,27	5,13	9,4	4,70
17	So'x t.	4,09	4,55	8,64	4,32
18	Bag'dod t.	4,53	4,10	8,63	4,32
19	Furqat t.	4,19	3,50	7,69	3,85
	Jami	100	100	200	100

Farg'ona viloyati turistik-rekreatsion salohiyati baholashda iqtisodiy-ijtimoiy va turistik omillar blokida 34 ta ko'rsatkich bo'yicha viloyat transporti, aholisi va mehnat resurslari, moddiy-texnik bazasi, turistik turar joylar, turizm sanoati subyektlari va mavjud turistik-rekreatsion yo'nalishlar 19 ta ma'muriy-hududiy birliklar kesimida baholandi. Har bir ma'muriy-hududiy birlikning Farg'ona viloyati iqtisodiy turistik-rekreatsion salohiyatidagi ulushi aniqlandi (3-jadval). Farg'ona viloyatining iqtisodiy turistik-rekreatsion salohiyatini baholash natijasiga ko'ra ma'muriy-hududiy birliklar eng yuqori, yuqori, o'rta, past ko'rsatkichli guruhlariga ajratildi: eng yuqori - Farg'ona sh., Farg'ona, Qo'qon sh., Quva; yuqori - Marg'ilon sh., Quvasoy sh., Rishton; o'rta - Oltiariq, Buvayda, Beshariq; past - Uchko'prik, Qo'shtepa, Toshloq, Dang'ara, Yozyavon, O'zbekiston, So'x, Bag'dod, Furqat.

XULOSA

Farg'ona viloyatining turli noyob va jozibali tabiat manzaralari, agrolandshaftlari, diqqatga sazovor bo'lgan madaniy va tarixiy obidalari bilan birga viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati rekreatsiya va turizmni rivojlantirishga muhim asos bo'ladi. Hozirgi kunda bu imkoniyatlardan turistik maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Farg'ona viloyatida qishloq xo'jaligi rivojlangan rayonlarda aholining bandligini ko'tarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday muammolarni hal qilishning yo'llaridan biri qishloq joylardan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanishni, ya'ni agroturizmni yo'lga qo'yishdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligi keng tarqalgan va rivojlangan joylarning agroturizm va ekoturizmni rivojlantirishdagi imkoniyatini o'rganish hamda baholashning ahamiyati katta. Shuningdek, Farg'ona viloyati hunarmandchiligi Respublikada o'z o'rniga ega bo'lib, kulolchilik, ipakchilik, yog'och o'ymakorligi alohida ajralib turadi.

Turistik-rekreatsion faoliyatni samarali yo'lga qo'yish uchun salohiyatni baholash va hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni tashkil etishda unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham albatta hisobga olish zarur. Iqlimiy diskomfortlilik, landshaftning sayohat uchun noqulay bo'lgan xususiyatlari, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik sharoit hududning sayyohlik imidjiga, turist va rekreantlarni jalb qilish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4143188>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Аббасов С.Б., Бадалов Ў.Б. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришда рекреация ресурсларидан фойдаланиш. //Ўзбекистон География жамияти ахборотномаси. 51-жилд. -Тошкент, 2017. -Б 29-32.
4. Абдуганиев О., Маҳкамов Э. Географические особенности организации туристско-рекреационной деятельности в охраняемых природных территориях // Международный научно-практический журнал «Экономика и социум» № 9 (64), 2019 йил
5. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. –М.: Аспект Пресс, 2002.
6. Аҳмадалиев Ю., Маҳкамов Э. Муҳофаза этиладиған табиий ҳудудларнинг рекреацион ва туристик имкониятларини баҳолаш // География ва география таълимидаги муаммолари. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференцияси материаллари. -Тошкент, 2018. –Б. 61-63.

7. Бадалов Ў.Б. Ўрта Зарафшон ҳавзасини рекреация-туристик ресурслари, улардан фойдаланишнинг географик асослари ва истиқболлари. Геог. фан. бўй. фалсафа док. ...диссертацияси. – С., 2021.
8. Елдавлетов С.Р. География туризма: история, теория, методы, практика. -Алматы, 2000. - 336 с.
9. Котляров Е.А. География отдыха и туризма. Формирование и развитие территориальных рекреационных комплексов. – М.: Мысль, 1978. – 238 с.
10. Маҳкамов Э. Рекреация ва туризмни ташкил этишда табиий шароитни баҳолашнинг назарий жиҳатлари // “Geography: nature and society” журналі № 4 (1). Тошкент, 2020 йил 34-38 бет
11. Маҳкамов Э. Фарғона вилоятида экотуризм ва уни ривожлантириш истиқболлари // Ўзбекистон география жамияти ахбороти 44-жилд Тошкент, 2014 йил 73-75 бетлар.
12. Маҳкамов Э., Маматисаков Ж. Рекреация ва туризм объектларини ҳудудий жойлаштиришнинг географик жиҳатлари // “Geography: nature and society” журналі № 2 (1). Тошкент, 2021 йил 43-48 бет
13. Colin Michael Hall. The Geography of Tourism and Recreation. University of Canterbury. 1999
14. Eagles Paul F. J., McCool Stephen F., Haynes Christopher D. Sustainable tourism in protected areas: Guidelines for Planning and Management / Adrian Phillips, Series Editor. – World Commission on Protected Areas (WCPA). Best Practice Protected Area Guidelines Series. – No.8. – International Union for the Conservation of Nature. – 2002. – 188 p.
15. Kruzhalin V.I., Shabalina N.V. Rekreacionnaya geografiya: istoriya, sovremennoe sostoyanie i perspektivy' razvitiya // Rekreacionnaya geografiya: idej, metody', praktika: sb. nauchn. tr. Tver': Nauchnaya kniga, 2006. S. 5–21.